Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'рни	772
<i>Fazlidjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat ta'limi samaradorligiga erishishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	775
<i>Xolikov Akmal Tajidinovich</i>	
Oliy ta'limda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish.....	778
<i>Axmedova Dilmora Kobiljonovna</i>	
Психологическая устойчивость к стрессу: опыт и открытия в Узбекистане	781
<i>Туракулова Дурдона Боходировна</i>	
Virtual ta'lim sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda samaradorlikni oshirish	784
<i>Tajibayeva Xurshida Djumamuratovna, Pirmanov Mansur Qadiryevich</i>	
Развитие иноязычной межкультурной компетенции студентов в системе профессионально ориентированного языкового образования: роль паремий в формировании межкультурной коммуникации	788
<i>Амануллаева Камола Муминовна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqini o'stirishda innovatsion metodikalarni qo'llash tendensiyasi.....	794
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>	

Akademik ijro mahoratini rivojlantirishda xavaskor xor rahbarlar uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar	797
<i>Yuldosheva Sadoqat Iloxmonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning me'yoriy-huquqiy asoslari	801
<i>Djamolova Noila Zayniddinovna</i>	
Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning odob va axloqga oid ilmiy merosidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari	807
<i>Ergasheva Dilnoza Mamasharifovna</i>	
Tayyorlov guruh bolalarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	810
<i>G'afforova Hurriyat Yangiboyevna</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarni media ta'limdan foydalanishga o'rgatish	814
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Bo'lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari	817
<i>Jalolova Feruza Mirkamol qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammolari va yechimlari	822
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb motivlari barqarorligiga guruhii jipslikning ta'siri	827
<i>Jumayeva Malika Aliyevna</i>	
Jismoniy tarbiya darslari jarayonida maktab yoshidagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish	831
<i>Kamardinov Baxtiyor Kamardinovich, Azimqulova Shaxlo Baxtiyor qizi</i>	
Maktab va oila hamkorligida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini she'r yodlash qobiliyatini shakllantirish	837
<i>Karimova Shoxsanam Islomovna</i>	
Turkistondagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi	840
<i>Karimova Zarrina</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqaruvida ijobiy ijtimoiy munosabatlar muhitini shakllantirishdagi tashqi ta'sirlar	843
<i>Maryam Raximova</i>	
Tarbiya ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligi	848
<i>Muhammadiyeva Feruza To'raikulovna</i>	
From Access to Success: Advancing Inclusive Education in Universities	852
<i>Nutfiyeva Dildora</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy tayyorgarligining pedagogik mexanizmlari	856
<i>O'tasheva Lola Shoto'rayevna</i>	
Kognitiv yondashuv asosida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida ingliz tilini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligini o'rganish	859
<i>Qudratova Sultonposhsha Otabek qizi</i>	
Klinik amaliyotda tibbiyot talabalarining stressni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion metodlari	864
<i>Sobirov Qobuljon G'ofirjon o'g'li</i>	
Ingliz tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitishda leksik derivatsiyalarning ahamiyati	868
<i>Abdusattarov Mavlon Sherali o'g'li</i>	
Tasavvuf adabiyotining paydo bo'lish omillari	872
<i>Ahmadova Shohsanam Sodiq qizi</i>	
Ichki ishlar akademiyasi kursantlarining favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirishning nazariy metodologik asoslari	875
<i>Kadirova Sayyora Madaminovna</i>	
Maktab fizika kursini o'qitishda ekologik tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari	878
<i>Karimov Abdurahmonjon Ma'rufjon o'g'li</i>	
Til o'rgatishda zamonaviy usullardan foydalanishning samaradorligi va joriy etish strategiyalari	882
<i>Muxammadjonova Nafisa Rustam qizi</i>	
O'quvchilarning fizika faniga oid umumiy kompetensiyalarini shakllantirishda elektron va mobil ta'lim platformalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	885
<i>Najmiddinova Murat Kamolovich</i>	
Sun'iy intellekt asosida talabalarining falsafiy tafakkurini rivojlantirishning metodologik asoslari	890
<i>Nodirbekov Furqatbek Umarjon o'g'li</i>	



Jadidlarning milliy ta'lim paradigmasi asosida OTM talabalarida milliy identlikni (o'zlik) rivojlantirish.....	894
<i>Ortiqboyev Soxibjon Inomjon o'g'li</i>	
Shifokor shaxsini tarbiyalashda empatiya va axloqiy qadriyatlarning o'rni	897
<i>Tajiboyeva Odinaxon Rustamjon qizi</i>	
Features of Flipped Learning to Improve Speaking Proficiency	901
<i>Tojiyeva Matluba Mahmud kizi</i>	
Socio-Cultural Approach to Teaching English to Students of Economic Specialties	904
<i>Xamdamova Nilufar Esanovna</i>	
Pedagogik mahorat	908
<i>Zakirova Difuza Ergashboyevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	912
<i>Xabilova Sitara Tursunmurod qizi, Payg'amova Husnida</i>	
Korpus asoslangan til pedagogikasini yuqori kurs ingliz tili ta'limiga joriy etishning nazariy jihatlari.....	915
<i>Toshpulatova Mexriniso Kilichevna</i>	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida o'rganish	919
<i>Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich</i>	
Talabalarning bilim o'zlashtirish darajasi va faolligini oshirishda differensial yondashuvning ahamiyati	925
<i>Sultonova Farangiz Alisherovna</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozuv malakasini oshirish yo'llari	929
<i>Boltayeva Barno Isakulovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalash metodikasini rivojlantirish.....	932
<i>Qosimova Aziza Umarali qizi</i>	



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI BOSHQARUVIDA IJOBIY IJTIMOY MUNOSABATLAR MUHITINI SHAKLLANTIRISHDAGI TASHQI TA'SIRLAR

Maryam Raximova

Abdulla Avloniy nomidagi

Pedagogik mahorat milliy tadqiqot instituti magistranti

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijobiy ijtimoiy munosabatlar muhitiga ta'sir etuvchi tashqi omillar tahlil qilinadi hamda rahbarlik amaliyotini insonparvar boshqaruvga yo'naltirish zarurati asoslanadi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy omillar rahbar-pedagog munosabatlari sifati hamda psixologik barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqlashtiradi. Maqolada vakolatlarni taqsimlash, ko'p indikatorli baholash tizimini joriy etish va psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: maktab boshqaruvi, ijobiy ijtimoiy munosabatlar, tashqi omillar, psixologik muhit, rahbar-pedagog munosabatlari, insonparvar boshqaruv, vakolatlarni taqsimlash, ko'p indikatorli baholash, psixologik qo'llab-quvvatlash.

Abstract: The article analyzes the external factors influencing the formation of a positive social climate in general secondary schools and substantiates the necessity of orienting leadership practices toward human-centered management. The research findings reveal that socio-economic, political-legal, and cultural factors directly affect the quality of principal-teacher relations as well as the stability of the psychological climate. The paper proposes scientific and practical recommendations on the balanced delegation of authority, the introduction of multi-indicator evaluation systems, and the development of psychological support services.

Key words: school management, positive social relations, external factors, psychological climate, principal-teacher relations, human-centered leadership, delegation of authority, multi-indicator evaluation, psychological support.

Аннотация: В статье анализируются внешние факторы, влияющие на формирование позитивного социального климата в общеобразовательных школах, и обосновывается необходимость ориентации управленческой практики на гуманистическое руководство. Результаты исследования показывают, что социально-экономические, политико-правовые и культурные факторы напрямую влияют на качество взаимоотношений "руководитель-педагог", а также на психологическую устойчивость. В статье предложены научно-практические рекомендации по распределению полномочий, внедрению многопоказательных систем оценки и развитию служб психологической поддержки.

Ключевые слова: управление школой, позитивные социальные отношения, внешние факторы, психологический климат, взаимоотношения руководитель-педагог, гуманистическое управление, распределение полномочий, многопоказательная оценка, психологическая поддержка.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshqaruv samaradorligi nafaqat ichki jarayonlar, balki tashqi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy omillar bilan ham uzviy bog'liqdir. Maktab rahbarlari faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir mexanizmlarini qanchalik samarali boshqara olishiga bog'liq bo'lib, bu jarayon boshqaruvning insonparvarlashuvi va ijtimoiy-psixologik barqarorlikni ta'minlash bilan bevosita aloqadordir.

So'nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlar (Bass, Burns; Herzberg; Likert; Schein va boshq.) rahbar-pedagog munosabatlarining sifati maktabdagi psixologik iqlim, jamoaviy birdamlik va o'quvchilarning akademik natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini isbotladi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tashqi omillar – jumladan, siyosiy barqarorlik, iqtisodiy resurslar taqsimoti, pedagog maqomi va huquqiy kafolatlar darajasi – rahbarlikning transformatsion yoki buyruqbozlikka asoslangan uslublarga moyilligini belgilab beradi. Shu bois boshqaruv tizimini yangilashda ichki motivatorlar (e'tirof, kasbiy o'sish imkoniyati, ijtimoiy ishonch) bilan bir qatorda tashqi resurslar va siyosiy-huquqiy mexanizmlarning uyg'unlashuvi zarur.

O'zbekiston ta'lim tizimidagi amaliyot shuni ko'rsatadiki, maktab direktorlari faoliyatini baholash mezonlari hanuzgacha asosan tor ko'lamli akademik ko'rsatkichlarga (OTMga kirish darajasi, attestatsiya natijalari) tayanadi. Bu esa Herzbergning ikki omilli motivatsiya nazariyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, ichki motivatsion omillarning yetarlicha inobatga olinmasligiga olib keladi. Tadqiqot natijalarida 78 foiz direktorlar faoliyatining yagona asosiy baholash mezonini sifatida akademik natijani qayd etgan bo'lsa, o'qituvchilar rahbarlik uslubining demokratik yoki avtoritar yo'nalishini psixologik muhit sifatiga ta'sir etuvchi hal qiluvchi omil sifatida baholagan.

Bundan tashqari, so'rovnoma natijalari maktab rahbarlarining ish yuklamasi vazifalarning noteng taqsimlanishi sabab haddan tashqari ortganini ko'rsatadi. 11 asosiy boshqaruv vazifasidan 8 tasi to'liq direktor zimmasiga yuklangan bo'lib, bu holat strategik rejalashtirish, jamoa bilan ishlash va ijtimoiy-emotsional qo'llab-quvvatlash faoliyatiga vaqt yetishmasligiga sabab bo'ladi. Natijada psixologik iqlim tashqi ko'rinishda barqaror bo'lsa-da, adolat, kommunikatsiya ochiqqligi va rag'bat tizimi bo'yicha rahbar-o'qituvchi idroki o'rtasida sezilarli tafovutlar yuzaga kelmoqda.

Mazkur holatlar boshqaruv jarayonida tashqi omillarning rolini chuqur o'rganishni, ularning rahbar-pedagog munosabatlari, ijtimoiy birdamlik va psixologik barqarorlikka ta'sirini ilmiy asosda baholashni taqozo etadi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida tashqi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy omillarning boshqaruvdagi ahamiyatini aniqlash, vakolatlarni qayta taqsimlash, ko'p indikatorli baholash tizimlarini joriy etish hamda psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqaruvida ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasida qabul qilgan "Pedagog maqomi to'g'risida"gi Qonun va Prezident farmonlari mazkur yo'nalishda me'yoriy-huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu hujjatlar pedagoglarning kasbiy maqomi, mehnat sharoitlari va ijtimoiy himoyasini mustahkamlash orqali maktab jamoalarida sog'lom psixologik muhitni shakllantirishga ko'maklashadi.

Xorijiy olimlar ham ijtimoiy munosabatlar muhitining sifatini o'rganishda turli nazariy yondashuvlarni ilgari surishgan. Herzberg o'zining ikki omilli motivatsiya nazariyasida tashqi gigiyenik omillar va ichki motivatorlarning muvozanatli uyg'unlashuvi jamoaviy barqarorlikni ta'minlashini asoslab bergan. Likert tomonidan ishlab chiqilgan ishtirokchi boshqaruv modeli esa rahbarlikda vakolatlarni jamoa a'zolari bilan bo'lishish muhitni yanada ijobiylashtirishini ko'rsatgan. Bass va Avolio transformatsion yetakchilik tamoyillari orqali ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va innovatsion g'oyalarni rivojlantirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashgan.

So'nggi yillarda xalqaro tashkilotlar ham bu masalaga alohida e'tibor qaratmoqda. OECD tomonidan chop etilgan "School Leadership for Learning" hamda UNESCOning "Social and Emotional Learning in Education" bo'yicha tavsiyalari rahbarlar faoliyatida ijtimoiy-emotsional ko'rsatkichlarni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Creswell, Bryman va Flickning ilmiy metodologiyaga oid ishlari maktab boshqaruvi jarayonlarini chuqurroq empirik tahlil qilishda asosiy metodik manba sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu tadqiqotlar rahbar-pedagog munosabatlarini nafaqat tashqi omillar, balki rahbarlarning boshqaruv madaniyati va insoniy yondashuvlari ham belgilashini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijobiy ijtimoiy munosabatlar muhitiga ta'sir etuvchi tashqi omillarni aniqlash hamda ularning boshqaruv jarayoniga ta'sirini baholashga qaratilgan bo'lib, aralash uslubdagi ilmiy izlanish sifatida olib borildi. Tadqiqot dizayni sifatida ketma-ket izohlovchi model tanlandi, bunda dastlab miqdoriy so'rovnomalar yordamida statistik ma'lumotlar yig'ildi, so'ngra sifat tahlili orqali ularning mazmuniy sharhi berildi ^[1].

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistonning turli hududlarida joylashgan umumiy o'rta ta'lim maktablari, predmeti sifatida esa rahbar-pedagog munosabatlari sifati va ularni shakllantiruvchi tashqi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy omillar olindi. Unda Toshkent shahri, Samarqand, Farg'ona va Qashqadaryo viloyatidagi maktablar qamrab olindi. Umumiy hisobda 120 nafar maktab direktori va 250 nafar o'qituvchi ishtirok etdi. Respondentlarning 38 foizi 20 yildan ortiq ish tajribasiga ega rahbarlar bo'lib, o'qituvchilar tarkibida ham 20 yildan ortiq stajga ega pedagoglar ulushi 37 foizni tashkil etdi.

Ma'lumot yig'ish jarayonida bir nechta metodlardan foydalanildi. Birinchi bosqichda Likert tipidagi besh pog'onali shkala asosida ikki turdagi so'rovnoma tuzildi ^[2]. Birinchisi "Rahbar-o'qituvchi psixologik muhitini



baholash" nomi ostida psixologik iqlim, adolat, kommunikatsiya ochiqqligi, nizolarni hal qilish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari kabi indikatorlarni o'z ichiga oldi. Ikkinchisi esa "Psixologik muhitni rivojlantirish bo'yicha ehtiyoj va takliflar" nomi bilan baholash tizimi, ish yuklamasi, qo'llab-quvvatlash xizmatlari hamda rag'bat mexanizmlarini qamrab oldi. So'rovnoma savollari UNESCO SEL (2025) tavsiyalari va OECD School Leadership indikatorlariga moslashtirildi [3].

Ikkinchi bosqichda yarim tuzilgan intervyular o'tkazildi. Unda 25 nafar maktab direktori va 40 nafar o'qituvchi ishtirok etdi. Savollar mazmuni Herzbergning ikki omilli motivatsiya nazariyasi, Bass va Avolio tomonidan ishlab chiqilgan Transformatsion yetakchilik modeli hamda Likertning ishtirokchi boshqaruv yondashuvi asosida shakllantirildi. Intervyular orqali rahbarlarning boshqaruv uslublari, tashqi omillarning ularning qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri va psixologik iqlimni shakllantirishdagi roli chuqur tahlil qilindi.

Uchinchi bosqichda normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro hisobotlar tahlil qilindi. Tadqiqotda ishlatilgan indikatorlar uch toifada jamlandi. Birinchisi, tashqi omillar bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy, demografik va ekologik sharoitlarni qamrab oldi. Ikkinchisi, ichki boshqaruv omillari bo'lib, vakolatlarning taqsimlanishi, qaror qabul qilish jarayonlari, motivatsion mexanizmlar va kommunikatsiya ochiqqligini o'z ichiga oldi. Uchinchisi esa natija indikatorlari bo'lib, psixologik iqlim sifati, o'qituvchilar kasbiy qoniqishi va o'quvchilarning akademik yutuqlariga oid ma'lumotlar tahlil qilindi.

Tadqiqot etik talablarga to'liq mos holda amalga oshirildi. O'zbekiston Milliy universiteti Etika qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan loyiha doirasida barcha respondentlar tadqiqotda ixtiyoriy ishtirok etdi. Ular ishtirokdan oldin ma'lumotli rozilik formasini imzoladi, anonimlik va maxfiylik to'liq kafolatlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijobiy ijtimoiy munosabatlar muhitini shakllantirish jarayoni tashqi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy omillar bilan bevosita bog'liqdir. Herzbergning ikki omilli motivatsiya nazariyasi nuqtayi nazaridan olingan ma'lumotlar rahbar-o'qituvchi munosabatlarida gigiyenik omillar (ish haqi, mehnat sharoiti, tashqi bosimlar) ustunlik qilayotgan holatda, ichki motivatorlar – e'tirof, kasbiy o'sish imkoniyati, ijtimoiy ishonch – yetarli darajada ishga solinmayotganini ko'rsatdi. Bu esa maktab jamoalarida psixologik iqlimni mustahkamlash imkoniyatlarini cheklaydi.

So'rovnomalarning natijalariga ko'ra, 78 foiz direktorlar faoliyati asosan tor ko'lamli akademik ko'rsatkichlar bilan baholanmoqda. O'qituvchilar esa rahbarlik uslubining demokratik yoki avtoritar yo'nalishini psixologik barqarorlikka ta'sir etuvchi hal qiluvchi omil sifatida ko'rsatdi. Bu OECD va UNESCO SEL tavsiyalarida qayd etilganidek, maktab rahbarlari baholash tizimida ijtimoiy-emotsional ko'rsatkichlar ulushini oshirish zarurligini tasdiqlaydi [5].

Vakolatlarning taqsimlanishidagi nomutanosiblik ham muhim masala sifatida qayd etildi. Likertning ishtirokchi boshqaruv modeliga ko'ra, vakolatlar keng jamoa ishtirokida taqsimlangan tizimlarda pedagoglar tashabbuskorligi oshadi va innovatsion loyihalar samaradorligi yuqori bo'ladi. Biroq tadqiqotda 11 asosiy boshqaruv vazifasidan 8 tasi to'liq direktor zimmasiga yuklangani, maktab kengashlari va ota-onalar qo'mitalari yetarlicha faol ishlamayotgani aniqlandi.

Intervyu natijalari shuni ko'rsatdiki, rahbarlarning katta qismi avtoritar yoki buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv uslubidan voz kechmagan. Bass va Avolio tomonidan ishlab chiqilgan transformatsion yetakchilik tamoyillarining to'liq joriy etilmaganligi o'qituvchilarda kasbiy qadrlanish va ijtimoiy birdamlik hissini pasaytiradi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ijobiy ijtimoiy munosabatlar muhitini shakllantirishda rahbarlar uchun faqat boshqaruv ko'nikmalari emas, balki emosional intellekt, mediatsiya va ijtimoiy-emotsional yetakchilik kompetensiyalari ham muhim [5; 8]. Shu bois, O'zbekistonda maktab boshqaruvini isloh qilishda transformatsion yetakchilik, ishtirokchi boshqaruv va ko'p indikatorli baholash tizimlarini uyg'unlashtirish strategik ahamiyatga ega bo'ladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari tashqi omillar (ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, huquqiy kafolatlar, madaniy qadriyatlar) va ichki boshqaruv mexanizmlarining uyg'un ishlamasligi maktablardagi psixologik muhitni mustahkamlashga to'sqinlik qilayotganini ko'rsatdi. Bu esa boshqaruvni insonparvarlashtirish, vakolatlarni optimallashtirish va psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini rivojlantirish zaruratini ilmiy asoslaydi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijobiy ijtimoiy munosabatlar muhitini shakllantirishda tashqi omillarning hal qiluvchi rolini ko'rsatdi. So'rovnoma va suhbat materiallari, shuningdek, normativ hujjatlar va ilg'or xorijiy tajribalar tahlili asosida shakllantirilgan ma'lumotlar rahbarlik amaliyoti bilan tashqi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy hamda madaniy determinantlar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.



1-jadval: Rahbar–pedagog munosabatlari sifatiga ta'sir etuvchi asosiy tashqi omillar

Omil guruhi	Ta'sir darajasi (%)	Empirik izoh
Ijtimoiy-iqtisodiy	40,2	Moliyaviy resurslar, infratuzilma va hududiy tengsizlikning rahbar qarorlarida ustuvorligi
Siyosiy-huquqiy	26,1	Qonunlar va normativ hujjatlar, pedagog maqomi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq talablar
Madaniy qadriyatlar	14,9	Maktab jamoasida muloqot madaniyati, milliy qadriyatlar va urf-odatlar ta'siri
Demografik	11,8	Yosh tarkibi, tajriba nisbatlari, gender balansi
Ekologik	7,0	Hududiy ekologik sharoit va uning psixologik muhitga bilvosita ta'siri

Natijalar shuni ko'rsatadiki, eng yuqori ta'sir kuchiga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy determinantlar rahbarlik faoliyatida ustuvor yo'nalishlarni belgilab bermoqda. Masalan, infratuzilma va moddiy-texnik ta'minot yetishmasligi pedagogik jamoa kayfiyatiga bevosita ta'sir qilgan. Siyosiy-huquqiy omillar esa rahbar–pedagog munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy mezon sifatida namoyon bo'lgan. Bu esa “Pedagog maqomi to'g'risida”gi Qonun va hukumat qarorlarining bevosita amaliy samarasi bilan bog'liq.

2-jadval: Rahbarlik uslublarining ijtimoiy munosabatlar muhitiga ta'siri

Rahbarlik uslubi	Ulushi (%)	Ta'sir talqini
Demokratik	35,0	Qaror qabul qilishda ochiqlik, ishonch va birdamlik muhitini shakllantiradi
Avtoritar	27,5	Qat'iy intizomni ta'minlaydi, biroq tashabbuskorlikni pasaytiradi
Ishtirokchi	15,3	Innovatsion g'oyalarni rag'batlantiradi, lekin yetarlicha qo'llab-quvvatlanmagan
Transformatsion yetakchilik	12,0	Ijroiy ruhiy muhit yaratishda samarali, ammo amaliyotda kam qo'llanadi
Vakolatlarni markazlashtirish	10,2	Mas'uliyat notekis taqsimlanishi sababli ziddiyatlar keltirib chiqaradi

Analiz natijalari ko'rsatadiki, demokratik boshqaruv uslubi eng ko'p qo'llaniladigan shakl bo'lib, u maktab jamoalarida ochiqlik, ishonch va hamkorlikni kuchaytiradi. Avtoritar boshqaruv muayyan sharoitlarda samarali bo'lsa-da, ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirishda sust natija beradi. Transformatsion va ishtirokchi rahbarlikning ulushi nisbatan past bo'lsa-da, ular zamonaviy boshqaruv tamoyillari nuqtayi nazaridan istiqbolli hisoblanadi.

Ilmiy tahlil

Olingan natijalar rahbar–pedagog munosabatlarining ijobiy shakllanishi tashqi omillarning murakkab uyg'unligi bilan belgilanayotganini tasdiqlaydi. Bu jarayonda ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va siyosiy-huquqiy kafolatlar asosiy omil sifatida ajralib turadi. Shu bilan birga, madaniy qadriyatlar va demografik tarkib psixologik barqarorlikni mustahkamlovchi ikkilamchi, ammo zaruriy shart sifatida namoyon bo'ladi. Olingan statistik natijalar G. Allportning “ijtimoiy muhit nazariyasi” hamda D. Goleman tomonidan ishlab chiqilgan “emosional intellekt” konsepsiyasini qo'llab-quvvatlaydi. Chunki ijtimoiy munosabatlarning ijobiy shakllanishi nafaqat tashqi sharoitlarga, balki rahbarlarning boshqaruv madaniyati va insonparvarlik yondashuviga ham bevosita bog'liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqaruvida ijobiy ijtimoiy munosabatlar muhitini shakllantirish tashqi omillar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy determinantlar rahbar–pedagog munosabatlari mazmuni va psixologik barqarorlik darajasini belgilab beruvchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida namoyon bo'ldi. Demokratik va ishtirokchi boshqaruv uslublarining ustunligi ijobiy psixologik muhitni shakllantiruvchi eng muhim omil sifatida qayd etildi, avtoritar va markazlashtirilgan boshqaruv shakllari esa ziddiyatli vaziyatlarni kuchaytirishi aniqlandi.

Natijalar shuni tasdiqladiki, tashqi ijtimoiy-iqtisodiy omillar o'zining kuchli ta'siri orqali pedagogik jamoa ruhiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Siyosiy-huquqiy kafolatlar, jumladan, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Pedagog maqomi to'g'risida”gi Qonun, shuningdek, ta'lim sohasiga oid Prezident farmon va qarorlari, rahbar va pedagog munosabatlarining me'yoriy asoslarini belgilovchi muhim hujjatlar sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Madaniy qadriyatlar va kommunikatsiya madaniyati esa jamoa birdamligini mustahkamlovchi ichki psixologik resurs sifatida qayd etildi.



Asosiy xulosalar:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar maktablarda sog'lom psixologik muhitni shakllantirishda eng katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, resurslardan samarali foydalanish zaruratini taqozo etadi.
2. Siyosiy-huquqiy mexanizmlar rahbar-pedagog munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy omil bo'lib, ularning amaliy samarasi monitoring tizimi orqali ta'minlanishi lozim.
3. Madaniy qadriyatlar, jamoa ichki muloqot madaniyati va demografik tarkibning uyg'unligi pedagogik jamoalardagi psixologik barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi.
4. Demokratik va ishtirokchi boshqaruv uslublari ijobiy psixologik muhitni shakllantirishda eng maqbul yondashuv sifatida namoyon bo'ldi.

Yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib, quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni taqdim etish mumkin:

1. **Boshqaruv yondashuvi.** Maktab rahbarlari boshqaruvda demokratik va ishtirokchi uslublarni keng joriy etishi, qaror qabul qilish jarayonida pedagoglar va ota-onalar ishtirokini ta'minlashi zarur. Bu ijtimoiy ishonch va jamoaviy birdamlikni mustahkamlaydi.
2. **Resurslarni boshqarish.** Hududlar bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy resurslarning adolatli taqsimotini yo'lga qo'yish, moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilish orqali o'quv muassasalarida psixologik barqarorlikni kuchaytirish mumkin.
3. **Normativ-huquqiy asos.** Qabul qilingan qonun va qarorlarning amaliy samaradorligini monitoring qilish mexanizmini kuchaytirish, huquqiy hujjatlarning ijrosini tizimli nazorat qilish maktab boshqaruvida barqarorlikni ta'minlaydi.
4. **Madaniy integratsiya.** Rahbar-pedagog munosabatlarida milliy qadriyatlar va muloqot madaniyatini jamoaviy faoliyatga integratsiya qilish sog'lom ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantiradi.
5. **Psixologik qo'llab-quvvatlash.** Maktablarda psixologik xizmatlarni institutsional mexanizm sifatida yo'lga qo'yish, pedagoglarni muntazam psixologik treninglar bilan qo'llab-quvvatlash tavsiya etiladi.
6. **Innovatsion boshqaruv.** Transformatsion va ishtirokchi yetakchilik uslublarni innovatsion boshqaruv strategiyalari orqali amaliyotga keng tatbiq etish maktab jamoalarining kreativ va tashabbuskorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Creswell, J. W. (2014). Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. 4th ed. Thousand Oaks, CA: SAGE.
2. Flick, U. (2018). An Introduction to Qualitative Research. SAGE Publications.
3. Bryman, A. (2016). Social Research Methods. Oxford University Press.
4. Likert, R. (1967). The Human Organization: Its Management and Value. McGraw-Hill.
5. UNESCO. (2025). Social and Emotional Learning in Education: Policy Recommendations. Paris: UNESCO.
6. OECD. (2016). School Leadership for Learning: Insights from TALIS 2013. Paris: OECD Publishing.
7. Herzberg, F. (1959). The Motivation to Work. New York: John Wiley & Sons.
8. Bass, B. M., & Avolio, B. J. (1994). Improving Organizational Effectiveness through Transformational Leadership. Thousand Oaks, CA: SAGE.
9. Likert, R. (1961). New Patterns of Management. McGraw-Hill.
10. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (2024-yil 1-fevral). "Pedagog maqomi to'g'risida"gi Qonun, O'RQ-901. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2024-yil, №5.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2025-yil 19-mart). "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-51-son Farmon. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2025-yil, №12.
12. Field, A. (2018). Discovering Statistics Using IBM SPSS Statistics. SAGE Publications.
13. Bazeley, P., & Jackson, K. (2013). Qualitative Data Analysis with NVivo. SAGE Publications.
14. Denzin, N. K. (2012). Triangulation 2.0. Journal of Mixed Methods Research, 6(2), 80–88.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.